



PEDAGOGIK MAHORAT FANINI O‘QITISH JARAYONIDA YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Usmonova M.A.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Tayanch sozlar: tarbiya ,o‘qitish, jarayon, muloqot, madaniyat, rivojlantirish, o‘smirlik davri ko‘nikmalar, imkoniyat, pozitsiya, ilmiylik, uzluksizlik, izchilligi.

Ключевые слова: образование, обучение, процесс, общение, культура, развитие, умения подростка, возможность, позиция, научность, преемственность, системность.

Key words: education, training, process, communication, culture, development, skills of a teenager, opportunity, position, scientificity, continuity, consistency.

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohaslarida erishilayotgan yutuqlar, ta'lim tizimida faoliyat yurita oladigan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishlari uchun yangi avlod darsliklari va qo'llanmalarini yaratish davr talabadir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra sifatli, yetuk mutaxassis tayyorlash bilan birga ularni xolisona, erkin fikr yuritadigan hamda ona vatanga dildan xizmat qila oladigan barkamol inson bo'lishlari uchun ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, davlat oldida javobgarlikni his qiladigan har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish murabbiylarimizning asosiy burchidir desak mubolaga bolmaydi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohaslarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga



aylangani” tahsinga sazovordir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni poytaxtimizda o‘tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratdi. "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim? – yoshlar. Mayli yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Ammo ayni paytda o‘zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doim aks – sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan. XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta’lim tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo‘llash orqali ta’lim berish, ta’lim muassasalarining moddiytexnik bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Empirik tahlil. Ma'lumki, shaxs madaniyati keng ko'lamli hodisa bo'lib, biz uning talabalarni xalqaro muloqotga tayyorlash bilan bog'liq yo'nalishlarini tahlil qilishga harakat qildik. Insonning muayyan jamiyat a'zosi, millat vakili sifatida o'ziga xos xususiyatlari bor. O'smirlik juda qiyin va ziddiyatli davr. Chunki bu davr faol shaxs shakllanishi bosqichidir. Shu bilan birga, bu juda mas'uliyatli davr bo'lib, inson hayotining ushbu bosqichida odob-axloq asoslari, ijtimoiy tartib-qoidalar, o'ziga, uning atrofidagi odamlarga va jamiyatga munosabati shakllanadi. Bu yoshda inson xarakterining ayrim tomonlari va shaxslararo munosabatlar barqarorlashadi. Bu davrning asosiy yo'naltiruvchi jihati insonning shaxsiy takomillashtirish istagida namoyon bo'ladi. Bu uning o'z-o'zini anglashi, o'z shaxsini ifodalashi va tasdiqlashida namoyon bo'ladi. Ushbu davrda kognitiv jarayonlar maksimal darajada yaxshilanadi va moslashuvchan bo'ladi. Natijada yuqori sinf o'quvchilarining atrofda qilishning yangi usullariga ega va ularning razvedkaga bo'lgan talablari ortadi. Ular endi mantiqiy fikr

yurita boshlaydilar, voqealarni nazariy talqin qiladilar va o'z faoliyatini tahlil qiladilar. Shu bilan birga, ularni axloqiy, ma'naviy-siyosiy masalalarda o'ylashga, fikrlashga undash kerak. Ular gipotezalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarishga odatlanishlari kerak. Ularning o'zi, o'zgarlar va jamiyatning barcha a'zolari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish natijasida o'z-o'zini anglashi ortadi. Natijada o'quvchilarda asosiy faoliyatga moyillik paydo bo'ladi. Bu davrda ularning o'zini o'zi boshqarishi kuchayadi. Natijada, ularning o'zini o'zi boshqarishga, o'z faoliyatini rejalashtirishga intilishi kuchayadi. Maktabda o'quv fanlari sonining ko'payishi bilan o'smir o'quvchilarda mantiqiy, irodali va tezkor xotiradan foydalaniladi. Aynan eslash jarayoni ularning tafakkurining asosi hisoblanadi. O'smir maktab o'quvchilarining tafakkuri xotiraga asoslangan fikrlash tarzi sifatida shakllanadi. Ularning hayotiy maqsadlaridan kelib chiqib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish o'smir o'quvchilarda irodani shakllantirish bilan bog'liq. Masalan, bunda o'zini boshqarish, kuchlarini muvofiqlashtirish, og'ir yukni engish, o'z imkoniyatlari doirasida o'z faoliyatini boshqarish, shu asosda o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishishga intiladi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, o'quvchilarning shaxsiy pozitsiyalari va qarashlari shakllanadi. Buning natijasida ularda o'ziga bo'lgan qiziqish, ichki dunyosini anglashga intilish, nazariy tahlil qilish ko'nikmalari o'sadi. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining "T a'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlarini, hislatlari, qobiliyatlari ish uslublari, pedagogik mahorat sirlarini egallash yoilari, shaxslararo muloqot madaniyati yuzasidan turli davrlarda har xil ilmiy izlanishlar olib borilgan. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlarini bilan belgilanishini ta'kidlab o'tish lozim. Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to'g'ri tanlangan, o'qituvchining ma'naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi: birinchidan, muloqotda har bir o'quvchiga alohida e'tibor va dilkashlik sinf jamoasi bilan umumiy muloqot jarayonini soddalashtiradi, o'qituvchining erkin pedagogik faoliyati uchun zamin tayyorlaydi, ziddiyatli vaziyatlarni oson hal qiladi; ikkinchidan, har bir o'quvchi bilan o'zaro munosabatni erkin muloqot asosida tashkil qilish, ularning yosh xususiyatlariga monand pedagogik va psixologik



muloqot uslublarini tanlash, uning ruhiyatini bilishga, ichki dunyosiga normalari muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib, ta'lim-tarbiya samaradoriigini oshiradi, muloqotning barcha bosqichlarida o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqish hissini va xotijamligini ta'minlaydi. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqi nazaridan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi. 2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhi tarbiyalaydi. 3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi. 4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi. Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;

- muomala obyekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralami o'z o'rnida ishiatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi;

- o'quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;

- o'quvchilarga og'zaki, o'zaro ta'sir ko'rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O'qituvchining nutqi ravon, o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir qiladigan bo'lishi.

Nihoyat, o'qituvchining o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o'zi tez-tez qayd qilgan da'illardan va o'quvchilarning xulq-atvop usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani O'qituvchi yuqori sinf o'quvchilar bilan muloqot jarayonida bevosita o'z tarbiyalanuvchilari, unda ro'y berayotgan turli ichki hodisalar haqida g'oyat xilma-xil axborotlarga ega bo'ladi va o'zining kelgusi ta'lim-tarbiyaviy rejalarini hamda pedagogik faoliyatini belgilaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi muloqot asosida o'z tarbiyalanuvchilariga ma'lum bir maqsadga qaratilgan axborotlar tizimini ma'lum qiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan arzimasi bir xatolik, adolatsizlik, qo'pollik o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatining buzilishiga sabab bo'ladi va tuzatib bo'lmaydigan

og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi: - pedagogik muloqot orqali O'qituvchi tarbiyalanuvchi obyekt bilan o'ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san'ati, ta'sir o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi; - O'qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo'lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir; - o'quvchilar jamoasi bilan muomalada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi; - o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir boladi. Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida obyekt va subyektning ichki hissiyoti bilan ular harakadarining uyg'unlashuvi sodir boiadi O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda yuqori sinf o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muloqotning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib ong va faoliyat birligini ta'minlashi taqozo etiladi. Ma'naviy ong o'quvchining dunyoqarashi, bilimi, his-tuyg'usi, idroki, irodasi va diqqatining majmuasi bo'lib, u o'qituvchining pedagogik mahorati negizida ta'lim-tarbiyaviy faoliyat asosida shakllantiriladi. O'z navbatida, ong ham faoliyatga ta'sir ko'rsatadi va uni tartibga soladi. Yuqori sinf o'quvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi ta'lim mazmuniga asoslanib, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etish saviyasiga bog'liq.

Xulosa. Xulosa qilib ta'kidlash joizki, ta'lim va tarbiya jarayonida yuqori sinf o'quvchilari ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy madaniyatni shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta'minlayd. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o'smirlik davri muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun nihoyatda qulay bo'lib, o'quvchilarda shaxslararo va millatlararo munosabatlarni yuksak darajada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. O'quvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarini, axloq-odobni, muloqot madaniyatini asosan o'qituvchi tint solido anglab olishini unutmash kerak. O'quvchilar jamoasida o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala de yiladi. Rasmiy muomala munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi. Norasmiy muomala pedagogik etika va estetikaning qonuniyatlariga va o'qituvchi odobiga asoslanadi va



jamoaning har bir a'zosi tomonidai ixtiyoriy ravishda bajariladi. Muloqot odobi psixologik qonuniyatlar odob normalari va qoidalari, talablari hamda o'qituvchilar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 май куни ўтказилган чет тилларини ўқитишни такомиллаштиришга бағишланган видеоселектор йиғилиши. <https://xs.uz/uzkr/post/>.
2. Sh.M.Mirziyoev «Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi» // Videoselektor yig'ilishidagi nutq. – 15 iyun, 2017 yil./ <https://www.Google.com>
3. 0 'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni //Barkamol avlod - 0 'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Share 1997, 20-29 betlar.
4. 0 'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dastui to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotinin poydevori. -T.: Sharq, 1997, 31-61 betlar.
5. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. - T 0 'zb. Milliy kutubxonasi, 2007. - 185 b.
6. Маънавий асосий тушунчалар изоҳли луғати. –Т.: Фафур Ғулум номидаги нашриётматбаа ижодий уйи, 2010. – 760 б.
7. Мусурмонова О. Юкори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед.фан.док. ...дисс. – Т., 1993. – 364 б.
8. Юсупова Х.И. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини миллатлараро мулоқотга тайёрлаш йўллари // Методик қўлланма. -Тошкент: "Sharq" нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2012. – 88 б
9. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: "Iqtisod- moliya". 2009.
10. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005,- 149 b.
11. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: "Iqtisod - moliya" 2009,- 156 b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini bugungi kundagi dolizarbligi, o'smirlik davri muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun nihoyatda qulay bo'lib, o'quvchilarda shaxslararo va millatlararo munosabatlarni yuksak darajada rivojlantirish imkoniyatini yaratishini ifodalaydi. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish yollarini ochib beradi. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, muloqot asosida olib boriladigan xususiyatlar negizida o'quvchilarda muloqot orqali ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari ifodalangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье в процессе преподавания науки об образовании представлены педагогические основы развития культуры общения старшеклассников сегодня, период подросткового возраста чрезвычайно удобен для формирования коммуникативных навыков, а развитие межличностных и межэтнических отношений у студентов на высоком уровне означает, что это создает возможности. Раскрываются пути реализации воспитательного потенциала культуры общения. Критерии формирования духовной культуры учащихся посредством общения выражаются в основе правильной организации деятельности преподавателя и учащихся во взаимном сотрудничестве, исходя из особенностей общения.

SUMMARY

In this article, in the process of teaching the science of education, the pedagogical foundations for the development of communication culture of senior pupils today are presented, the period of adolescence is extremely convenient for the formation of communication skills, and the development of interpersonal and interethnic relations in students at a high level means that this creates opportunities. The ways of realizing the educational potential of the culture of communication are revealed. The criteria for the formation of the spiritual culture of students through communication are expressed in the basis of the correct organization of the activities of the teacher and students in mutual cooperation, based on the characteristics of communication.